

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**VETERİNARIYA ILMİY TADQIQOT INSTITUTI**

**5440100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)  
ta'lif yo'nalishi, 3-bosqich, 311-guruh talabalar uchun**

**"Veterinariya sanitariya ekspertizasi" fanidan  
"Sutdagi yog' miqdorini aniqlash"  
mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti bo'yicha**

**OCHIQ DARS ISHLANMASI**

**Samarqand – 2023**

**Tuzuvchi:**  
**Ochilov J.N.**

VITI, kichik ilmiy xodimi.

**Taqrizchilar:**

**Isayev M.T.** VITI, laboratoriya mudiri, veterinariya fanlari nomzodi.

**Do'skulov V.M.** SamDVMCHBU, “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasи, veterinariya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi.

**“Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash”**  
**Laboratoriya mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.**

Vaqt: 2 soat	<i>Talabalar soni: 23 nafar</i>
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Laboratorita mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash usullari (jiromer va laktan yordamida); 2. Sut tarkibidagi yog‘ sharikchalarini mikroskop ostida ko‘rish.
<i>Darsning maqsadi:</i> olib kelingan har xil holatdagi sut namunalarini yog‘miqdorini aniqlash orqali, sutni iste’molga yaroqliliginini aniqlash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - sut to‘g‘risidagi tushunchalarni talabalar ongiga mustaxkamlash; - suttan namunalar olish va sifatiga baho berish; - olingan sut namunalarini organoleptik va laboratoriya tekshirish usullari orqali sifatini aniqlash.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> <b>Talabalar:</b> - sut to‘g‘risida umumiy tushuncha oladilar, namuna olish, laboratoriya jo‘natish, sutning tarkibiga kiruvchi mineral moddalar va vitaminlar to‘g‘risida ma’lumotlarni bilish kabi bilimlarga ega bo‘ladilar.
<i>Ta’lim usullari</i>	Laboratoriya mashg‘ulot, kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, pinbord
<i>Ta’limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy, guruhli
<i>Ta’lim vositalari</i>	Laboratoriya mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi, videoproyektor, kompyuter, tarqatma materiallar, sut namunasi, sut to‘g‘risida har xil plakatlar, jadvallar, reaktivlar, yo‘riqnomalar va ishlanmalar.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov, test.

## Laboratoriya mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	<p>1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish.</p> <p>1.2. Mavzu mohiyati, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</p>	Eshitadi, yozib oladi.
2-boqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi. (Aqliy xujum metodi 1-ilova)</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda laboratoriya mashg‘ulotning qisqacha bayonini tushuntirib beradi. (Klaster metodidan foydalangan holda 2-ilova)</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qilishni va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p> <p>2.4. Guruhni guruhchalarga bo‘ladi va har bir guruhga topshiriq beradi. (Kichik guruhlarda ishlash metodi 3-ilova)</p> <p>2.5. O‘qituvchi turli oziq-ovqatdan olingan namunalar organoleptik va laborator usullarda sifatini aniqlashni tushuntiradi va amalda bajarib ko‘rsatadi.</p> <p>2.6. O‘qituvchi guruhlar bajarayotgan ishlarni nazorat qilib yo‘riqnomaga berib boradi.</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan mavzularni aytadi. O‘ylaydi, javob beradi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzuni yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga talabalar e’tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Guruh ishini baholaydi;</p> <p>3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi va baholash me’zonlari bilan tanishtiradi.</p>	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o’tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

**O'quv elementlari:** Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash usullari (jiromer va laktan yordamida). Sut tarkibidagi yog‘ sharikchalarini mikroskop ostida ko‘rish.

**Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:** sut, jiromer, dozator, sentrafuga, pipetka va boshqalar.


**1-ilova**

**Aqliy xujum metodi**

1. Sut deganda nima tushuniladi?
2. Sutning sifati va ko‘rsatkichlari nimalarga bog‘liq?
3. Sutni tekshirishning qanday usullarini bilasiz?


**2-ilova**

**Klaster metodi**



**3-ilova**

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”**



Kichik guruhlarda ishslash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkonи tug'uladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

## **Mavzu: Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash.**

**2-soat**

**Reja:**


1. Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash usullari (jiromer va laktan yordamida).
2. Sut tarkibidagi yog‘ sharikchalarini mikroskop ostida ko‘rish.

**Mashg‘ulotning maqsadi:** olib kelingan har xil sut namunalarida laktan va jiromer apparatlari yordamida sutning yog‘lilik miqdorini va mikroskop ostida yog‘ sharikchalarining holatini, ishqor eritmasi bilan titrlash reaktsiyasini qo‘yish orqali zichligini aniqlash yo‘li bilan sutni tabiiyligini va soxtalashtirilganligini aniqlash.

**Darsning borishi:** Laboratoriya tekshirishlari uchun 18-20 C° haroartdagi sut namunasi tayyorlab olinadi. Sutning yog‘lilik darajasini aniqlash uchun jiromerga 10 ml sulfat kislotasi, 10.77 ml\li pipetka yordamida sut va ustiga 1 ml izomil spirti qo‘silib sentrafugaga qo‘yilib sutning yog‘lilik miqdori aniqlanadi. Buyum shishasida tayyorlangan suyultirilgan sut namunasida mikroskop ostida yog‘ sharikchalarini ko‘riladi. Areometr yordamida 250 ml hajmli silindrda sutni zichligi aniqlanadi. O‘qituvchi tomonidan talabalarga yuqorida keltirilgan laboratoriya usullari bo‘yicha tushuncha beriladi, yozdiriladi va amalda bajariladi.


**Sut tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlash.** Sut tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlashning hozirgi kungacha eng qulay aniq usullaridan biri Gerber usuli hisoblanadi. Bu usulda aniqlash faqatgina bizning mamlakatimizda keng qo‘llanilib qolmasdan, boshqa taraqqiy qilgan davlatlarda ham qo‘llaniladi. Sut tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlash uchun avvalambor yog‘ sharikchalarini oqsilli qobig‘idan ajratish kerak. Buning uchun qobiqli erituvchi sifatida kontsentrlangan sulfat kislotasi ishlatiladi.

Ya’ni yog‘ sharikchalarining qobig‘iga sulfat kislotasining ta’sir qilish quyidagi reaktsiya bilan boradi.



Yog‘ni qobiqlaridan butunlay chiqishini tezlatish uchun izoamil spirti ishlatiladi.

Reaktsiya quyidagi tartibda boradi:



Sut tarkibidagi yog‘ miqdorining to‘g‘ri aniqlanishiga quyidagi sharoitlar ta’sir qiladi:


1. Ishlatilayotgan sulfat kislotasida aralashmalar bo‘lishi mumkin emas. Sut tarkibidagi yog‘ni aniqlashda texnik kislota ishlatiladi. Sulfat kislotasining zichligi 1,81–1,82 oralig‘ida bo‘lishi kerak. Agar ishlatilayotgan kislotaning konsentratsiyasi kuchli bo‘lsa, yog‘ shariklarining qobig‘ni quyilishidan eritmaning rangi qorayadi va buning oqibatida yog‘ning chegarasini ajratish qiyinlashadi. Aksincha, kislotaning konsentratsiyasi past bo‘lsa, yog‘ qobig‘ining oqsili butunlay eritmeydi, shuning uchun ham sut tarkibidagi yog‘ miqdori pasayadi.
2. Ishlatilayotgan izoamil spirtining tarkibi toza bo‘lishi va aralashmalar bo‘lmasligi kerak. Spirtning zichligi 0,810-0,812 oralig‘ida bo‘lish kerak.
3. Yog‘ o‘lchagich jiromerga aralashtirilgan sut solinadi. Agar tekshirilayotgan sut namunasi yuzasida qaymoq hosil qilgan bo‘lsa, namuna 35° gacha isitilishi kerak. Lekin tekshirishdan oldin namuna 20° haroratgacha sovutilishi lozim.
4. Reaktivlar va tekshirilayotgan sut namunasi aniq pipetkalar yordamida o‘lchanishi kerak. Bular jiromerga quyishdan oldin kislota, keyin sut va oxirida spirt solinishi kerak. Sutni o‘lchash uchun ishlatiladigan pipetkalarning uchi singan bo‘lsa, ishlatishga yaroqsiz hisoblanadi.
5. Ayrim paytlarda ishlatilayotgan jiromerlar standartsiz sig‘imga ega bo‘ladi, bunday jiromerlarni ishlatish mumkin emas. Agar ishlatish to‘g‘ri kelsa, jiromerning ichiga faqatgina 1-2 ml kislota qo‘silishi kerak (suv qo‘sish mumkin emas).
6. Ishlatilayotgan sentrifugani aylanishi 800 min bo‘lsa, olingan natija noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

**Aniqlash tartibi.** Sut tarkibidagi yog‘ning miqdorini aniqlash uchun shtativga raqamlar bilan nomerlab o‘rnatilgan quruq toza jiromerlarga dozator yordamida 10 ml dan sulfat kislotasi solinadi. So‘ngra tekshirilayotgan sut yaxshilab aralashtirilib, har qaysi jiromerga maxsus pipetka yordamida 10,77 ml dan sut solinadi. Pipetkaga olingan sutni jiromerga quyishda, sut jiromerning devori bo‘ylab asta-sekinlik bilan quyilishi kerak. Ya’ni kislota qatlaming ustida sut qatlami hosil bo‘ladi. Pipetkaga olingan sutning hammasi jiromerga tushishi uchun jiromerning bo‘ynini ichki devoriga pipetkaning uchini tegizish kerak. Pipetkada qolgan sutni puflab tushirish mumkin emas.

Oxirida jiromerga 1 ml izoamil spirti jiromerning og‘izini ho‘llamasdan solinadi, agar jiromer og‘zi ho‘llansa jiromerning tiqini chiqib ketadi. Mana shu tarizda to‘ldirilgan jiromerning og‘zi rezina tiqini bilan mahkamlab yopilishi kerak, lekin jiromerga tiqinni tiqishda ho‘l bilan jiromerning keng joyidan qo‘l sochiq bilan ushslash kerak. So‘ngra jiromer chayqatilib, ichiga solingan narsalar aralashtiriladi. Keyin esa jiromerlar 65° haroratli suv hammomida 5 minut ushlanadi. So‘ngra jiromerlar suv hammomidan chiqarib artiladi va tiqinlarini sentrafuga patroni ichiga qo‘yib sentrifugaga o‘rnashtiriladi, keyin sentrifuganing qopqog‘i yopilib, 5 minut sentrifugaga aylantiriladi (sentrifugani aylanish tezligi

minutiga 1000 marta bo‘lishi kerak). Sentrifugadan chiqarib olingan jiromerlar yana qaytadan tiqinlari pastga qaratilgan holatda 65° haroratli suv hammomida 5 minut ushlanadi. Jiromerlar suv hammomidan chiqarilgandan keyin sochiq bilan artib tozalanadi. So‘ngra jiromerning shkala bo‘lmalariga qaralib yog‘ aniqlanadi. Agar jiromer ichidagi hosil bo‘lgan yog‘ning pastki chegarasi shkaladagi butun sonlarga to‘g‘ri kelmasa, jiromerning tiqini ichkariga tiqilib yoki qisman chiqarilib, yog‘ning pastki chegarasi butun songa tenglashtiriladi.

Tekshirish paytida jiromer ichida hosil bo‘lgan yog‘ bilan kislota o‘rtasidagi chegara aniq ko‘rinib turishi kerak. Agar aniq bo‘lmasa tekshirish qaytadan bajarilishi lozim, (1, 2-rasmlar).



**1-rasm.** Sut va sut mahsulotlarining tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlash uchun jiromerlar.


**a- tabiiy sutda;**

**b- smetanada;**

**v- yog‘ sizlantirilgan sutda;**

**g-tvorog va pishloqda.**

**2-rasm.** Sutdagi yog‘ miqdorini aniqlash tartibi.



**1-dozatorni kislota bilan to‘ldirish;**

**2-kislotaning sathi;**

**3-jiromeraga kislota quyish;**

**4-jiromerdagi kislota o‘stiga 10,77 ml sut solish;**

**5-jiromerdagi sut ustiga izomil spiriti qo‘yish;**

**6-jiromer og‘zini tiqin bilan bekitish;**

**7-jiromerlarni shtatiga o‘rnatalishi;**

**8-sentrifuga**

### Sutni yog‘liligini “LAKTAN 1-4 M” apparati yordamida aniqlash. (ultratovush yordamida)



**3-rasm. LAKTAN 1-4 M apparati. 4-rasm. Sut va sut mahsulotlari.**

**Ishni bajarilishi:** Olingan namuna 25-35 C° haroratgacha qizdiriladi. Agar sut sovib qolib yuziga yog‘i chiqgan bo‘lsa unda sutni 40-45 C haroratdagi suv

hammomida qizdiriladi. Qizdirilgan sutni 25 °C ga keltirish uchun 3 marta bir idishdan ikkinchi idishga o'tkazish orqali sovitiladi.

1. Apparat elektr manbaiga ulanib qo'shiladi.
2. Apparatni ekranida „Qizish” (progrev) yozuvi chiqgandan so'ng 3 minut davomida apparatni qizishi yani ish holatiga kelishi kutiladi.
3. Apparat ekranida sut – 1 (moloka-1) yozuvi chiqgandan so'ng 25 ml tekshiriladigan sut namunasidan apparatni idishiga solinib, apparatga joylashtiriladi.
4. Apparatni ishga tushirish (pusk) tugmasi bosiladi. Bunda idishdagi sutni apparat tortib oladi va tekshirish boshlanadi. Tekshirish 3-5 daqiqa davom etadi.
5. Tekshirish tugagandan so'ng apparat ekranida tekshirish natijalari chiqadi. Ya'ni sutning yog'liligi, quruq qoldiq moddasi, oqsil miqdori, zichligi, sutni muzlash nuqtasi va sutga qo'shilgan suv miqdori aniqlanib ko'rsatiladi.
6. Tekshirish ishlari tugagandan so'ng apparatning stakanchasiga 40-45 °C haroratgacha qizdirilgan suv solinib apparatni yuvish ishlari suv tiniq bo'lgunicha bir necha marotaba takrorlanadi. Buning uchun apparat idishchasiga kerakli haroratdagi suv qo'yilgandan so'ng apparatni menuy tugmachasi bosilib yuvish dasturi topilib yuqorida ko'rsatilganidek yuvish ishlari o'tkaziladi.

### Sutning yog' sharikchalarini aniqlash.



**5-rasm. Mikroskop.**

**6-rasm. Sutni yog' miqdorini tekshirish jarayoni.**

Ma'lumotlarga ko'ra 1 ml sut tarkibida 2-4 mlrd\tagacha yog' sharikchalarini bo'lib ular har xil o'lchamlarda bo'ladi. Yog' sharikchalarini ko'rish uchun buyum shishasiga distirlangan suv bilan suyultirilgan sutdan bir tomchi quyilib yopgich shishacha bilan yopiladi. Suyultirilgan sut namunasini tayyorlash uchun probirkaga 5 ml sut olinib 20 ml distirlangan suv bilan aralashtiriladi. Buyum shishachasida tayyorlangan preparat mikroskop ostida 300-500 marta kattalashtirilib ko'riladi. So'ng yog' sharikchalarni katta kichikligi va soni aniqlanadi.

## **Nazorat uchun savollar:**

- 1.** Sutdan namuna olish tartibini aytib bering?
- 2.** Tozaligi bo‘yicha sut necha guruhga bo‘linadi?
- 3.** Tabiy sutning kislotalik darajasi nechchi terner bo‘ladi?

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.** S.Murodov Veterinariya-sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand, 2006 yil.
- 2.** S.Murodov Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining vetsanekspertizasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va standartizatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 1997 yil.

### **Xorijiy adabiyotlar**

- 1.** Thimjos Ninios, Janne Lundn, Hannu Korkeala, Maria Fredriksson-Ahomaa. «Meat Inspection and Control in the Slaughterhouse» Textbook. Helsinki, 2014 year.
- 2.** А.В.Смирнов. Практикум по ветеринарно-санитарной экспертизе. Учебник. Санкт-Петербург ГИОРД, 2015 год.
- 3.** Б.С.Сенченко. Ветеринарно-санитарная экспертиза продуктов животного и растительного происхождения. Учебник. Ростов-на-Дону Издательский центр «март», 2001 год.
- 4.** В.А.Макаров. Практикум по ветеринарно-санитарной экспертизе с основами технологией продуктов животноводства. Учебник. «Агропромиздат» Москва ВО, 1995 год.

## **Axborot manbaalari**

- 1.** www.Ziyo.net.uz.
- 2.** [www.veterinariya](http://www.veterinariya) meditsinasi.uz
- 3.** [www.sea@mail.net21.ru](mailto:www.sea@mail.net21.ru)
- 4.** [www.veterinary@actavis.ru](mailto:www.veterinary@actavis.ru)



